

## I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, viloyatda 2022 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot (YAHM) hajmi joriy narxlarda 10 782,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. YAHMning o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,5 foizni tashkil etdi.

*Yalpi hududiy mahsulot (YAHM) – milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident – institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YAHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali hisoblanadi.*

Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YAHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ining o'sish sur'ati 102,2 foiz, (YAHM tarkibidagi ulushi 42,0 %), sanoat – 107,1 foiz (15,9 %), qurilish – 107,4 foiz (7,2 %), savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 112,9 foiz (6,9 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 110,2 foiz (4,1 %) va xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 102,6 foiz (23,9 %)ni tashkil qildi.



2022 yilning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHMning ishlab chiqarishda tarmoqlarning ulushi, foizda

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi



Sanoat



Qurilish




Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Tashish va saqlash, axborot va aloqa




Boshqa xizmat tarmoqlari



YAHM deflyator indeksi 2022 yilning yanvar-iyun oylaridagi narxlarga nisbatan 113,3 foizni tashkil etdi.


(foizda)



Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 7 432,9 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,1 foizga o'sdi.



2022 yilning yanvar-iyunida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va o'sish sur'atlari





2022 yilning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHMning ishlab chiqarish usuli bilan hisoblangan tarkibi

	Mrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2021 yil	2022 yil	
<b>I. YAHM</b>	<b>9 109,7</b>	<b>10 782,1</b>	<b>104,5</b>
<i>shu jumladan:</i>			
 Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	8 864,8	10 486,2	104,4
 Mahsulotlarga sof soliqlar	244,9	295,9	108,5
<b>Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>8 864,8</b>	<b>10 486,2</b>	<b>104,4</b>
 Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	3 987,9	4 399,4	102,2
<b>Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>1 815,6</b>	<b>2 422,2</b>	<b>107,2</b>
 sanoat	1 134,8	1 666,4	107,1
 qurilish	680,8	755,8	107,4
<b>Xizmatlar</b>	<b>3 061,3</b>	<b>3 664,6</b>	<b>105,5</b>
 savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	572,6	723,5	112,9
 tashish va saqlash, axborot va aloqa	375,9	434,9	110,2
 boshqa xizmat tarmoqlari	2 112,8	2 506,2	102,6

Iqtisodiy o'sish sur'ati milliy iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida Iqtisodiy o'sish sur'ati milliy iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir.



2021 yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)



		2021 yil	2022 yil
	<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	97,3	97,3
	Mahsulotlarga sof soliqlar	2,7	2,7
	<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	45,0	42,0
	<b>Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>20,5</b>	<b>23,1</b>
	sanoat	12,8	15,9
	qurilish	7,7	7,2
	<b>Xizmatlar</b>	<b>34,5</b>	<b>34,9</b>
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6,5	6,9
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	4,2	4,1
	boshqa xizmat tarmoqlari	23,8	23,9

2022 yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,3 foizini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,7 foizini tashkil etdi.

Hisobot davrida Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligining YAHMning tarmoqlar boʻyicha tarkibidagi ulushi 42,0 foizni, sanoat tarmogʻi 15,9 foizni, qurilish 7,2 foizni va xizmatlar sohasi 34,9 foizni tashkil qildi.




**Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar boʻyicha tarkibi yanvar-iyun holatiga (jamiga nisbatan foizda)**



● Yalpi qoʻshilgan qiymat



● Mahsulotlarga sof soliqlar



**Xizmatlar sohasining yalpi qoʻshilgan qiymati tarkibi  
(jamiga nisbatan foizda)**


2021 yil yanvar-iyun

2022 yil yanvar-iyun



- Savdo, yashash va ovqatlanish boʻyicha xizmatlar
- Tashish va saqlash, axborot va aloqa
- Xizmat koʻrsatuvchi boshqa tarmoqlar

Jumladan, savdo, yashash va ovqatlanish boʻyicha xizmatlarning YAHM tarmoqlari tarkibidagi ulushi 2022 yil yanvar-iyun oylarida – 6,9 foizni (2021 yil yanvar – iyun oylarida – 6,5 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 4,1 foizni (4,2 %), xizmat koʻrsatuvchi boshqa tarmoqlar – 23,9 foizni (23,8 %) tashkil etdi.



**2022 yilning yanvar-iyunida kichik biznesning YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan foizda)**

2022 yil yanvar-iyun kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 75,5 foizni tashkil qildi (2021 yil yanvar-iyunda – 78,3 foiz).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining oʻtgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bogʻliq.

2022 yil yanvar-iyun

75,5 %

2021 yil yanvar-iyun

78,3 %